

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026 MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI	10
Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА	19
Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишерович	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНАЕ	28
Габбарова Ильмира Володиевна	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH	34
Amirov Shavkat Rahmatullayevich	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	41
Усманова Азиза Баходировна	
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQUISH	46
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	55
Alimova Dilafro'z Tohir qizii	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	61
Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR	67
Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	75
Rajapov Xayrulla Bekdurdievich, Sharipova Lobar Umrbek qizi	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH	82
Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI	90
Muxtorova Shaxlo Farxodovna	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH	94
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY	99
Sultanova Kamila Mukhtorali kizi	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	104
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
FARG'ONA VILOYATI MAHALLALARIDA TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLARINI BAHOLASH	110
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	



MHXS STANDARTLARIGA O'TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	116
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO'P O'LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI	120
Turdikulova Moxira Maxmasharifovna	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI	125
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO'Y BERISHI MUMKIN BO'LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI	131
Dehqonov Oyatillo Mansurbek o'g'li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQRISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH...	136
Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg'ashova Madina, Jo'rayev Muhiddin	
JAHON MOLIYAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	140
Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.	
KORXONALARDA "TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH" KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	144
Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich	
HUDUDIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO'LLARI.....	149
Mamadjanova Tuyg'unoy Axmadjanovna	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO'SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH	154
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O'RNI	159
Irgashev Anvar Farxodovich	
XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	166
Raxmankulov Sherzod Shokirovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР	171
Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI	177
O'tbosarov Abrorbek Adxamjon o'g'li	
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQRISH.....	182
Xamidova Zarifa Urol qizi	
AUDIT JARAYONIDA DALIL OLISH VA UNING MUAMMOLARI.....	189
Ro'zmetov Mansur	
O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TURIZMNI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	193
Shaydulova Marjona Alisher qizi	
KORXONALARNING MOLIYAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR VA ULARNING MOLIYAVIY TAHLILI AHAMIYATI.....	198
Rizoyev Farrux Hikmatilloevich	



KORXONALARNING MOLIYAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR VA ULARNING MOLIYAVIY TAHLILI AHAMIYATI

Rizoyev Farrux Hikmatilloevich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Mustaqil tadqiqotchisi

“NKMK” AJ Shimoliy KB byudjetlashtirish va kontrolling bo'limi 1-toifali iqtisodchi

O'zbekiston Respublikasi, Navoiy viloyati, Uchquduq tumani

Email: bfa.rizoev@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalarining moliyaviy holatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar tizimi va ularning moliyaviy tahlildagi o'rni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda likvidlik, to'lov qobiliyati, rentabellik va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining mohiyati, ularni hisoblash metodikasi va tahlil qilishning ahamiyati yoritilgan. O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi holati statistik ma'lumotlar asosida baholanib, moliyaviy tahlilni takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy holat, moliyaviy tahlil, likvidlik, to'lov qobiliyati, rentabellik, moliyaviy barqarorlik, korxonalar, ko'rsatkichlar tizimi.

Аннотация: В данной статье научно-теоретически и практически анализируется система основных показателей, характеризующих финансовое состояние предприятий, и их место в финансовом анализе. В исследовании рассмотрена сущность, методика расчета и значение анализа показателей ликвидности, платежеспособности, рентабельности и финансовой устойчивости. Текущее состояние экономики Узбекистана оценено на основе статистических данных, разработаны практические рекомендации по совершенствованию финансового анализа.

Ключевые слова: финансовое состояние, финансовый анализ, ликвидность, платежеспособность, рентабельность, финансовая устойчивость, предприятие, система показателей.

Abstract: This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the system of key indicators characterizing the financial condition of enterprises and their role in financial analysis. The study examines the essence, calculation methodology, and importance of analyzing liquidity, solvency, profitability, and financial stability indicators. The current state of Uzbekistan's economy is assessed based on statistical data, with practical recommendations developed for improving financial analysis.

Keywords: financial condition, financial analysis, liquidity, solvency, profitability, financial stability, enterprise, system of indicators

KIRISH

Iqtisodiyotning o'zgaruvchan va yuqori darajada raqobatli muhitida korxonalarining moliyaviy holatini tizimli tahlil qilish ularning uzoq muddatli barqarorligi, operatsion samaradorligi va investitsion jozibadorligini ta'minlovchi asosiy mexanizm hisoblanadi. Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish, iqtisodiy globallashtirishning chuqurlashuvi va tarmoq ichidagi raqobatning keskinlashuvi korxonalarini moliyaviy resurslardan foydalanishda yuqori darajadagi samaradorlikka erishishga, potensial va real risklarni o'z vaqtida identifikatsiya qilishga hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etishga undamoqda. Moliyaviy tahlil — bu korxonaning moliyaviy holatini, uning operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyati doirasida resurslarni shakllantirish va ularni taqsimlash jarayonlarini o'rganuvchi ilmiy-amaliy vosita bo'lib, u zamonaviy boshqaruv tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Binobarin, korxonalarining moliyaviy holatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar tizimi va ularning analitik ahamiyatini chuqur o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri sifatida kun tartibida turibdi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur muammoning ilmiy-nazariy aspektlari mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan.



Xususan, M.Sharifxo'jayev o'zining "Menejment" asarida korxonalar samaradorligini oshirish maqsadida qo'llaniladigan boshqarish tamoyillari, vositalari va shakllari haqida batafsil ma'lumot bergan.

Sh.N. Zaynutdinov tomonidan korxonalarda moliyaviy menejmentning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqilgan. N.Q. Yo'ldoshev esa strategik menejment va moliyaviy boshqaruv o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tadqiq qilgan. Q. Muftaydinov iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlik va moliyaviy risklar o'rtasidagi munosabatlarni o'rgangan. D.X. Xudaynazarova, Sh.Z. Muxitdinov, N.M. Mahmudov va A.U. Burxanovlarning ilmiy ishlarida korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning uslubiy va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilingan. Ushbu olimlarning ilmiy merosi mavzuni o'rganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Yevropa olimlarining moliyaviy holatni tahlil qilish sohasidagi tadqiqotlari ham mazkur mavzuning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Masalan, nemis olimlari H. Bierman va J. Hass moliyaviy ko'rsatkichlar tizimini "DuPont" modelini takomillashtirish orqali rivojlantirgan bo'lib, ular "Likvidlik va rentabellik o'rtasidagi korrelyatsiya korxonalar barqarorligini 40 %ga belgilaydi" deb hisoblaydilar. Ingliz olimi R. Kaplan esa "Balanced Scorecard" metodikasini taklif etib, moliyaviy tahlilni strategik boshqaruv bilan integratsiyalashganini ta'kidlagan. Shveysariya olimi Ph. Jorion "Value at Risk" (VaR) modelini ishlab chiqib, likvidlik risklarini bashorat qilishning matematik asoslarini yaratgan. Ushbu yondashuvlar O'zbekiston korxonalarida moliyaviy tahlilni takomillashtirish uchun xalqaro tajriba sifatida qo'llanilishi mumkin.

Moliyaviy tahlil korxonalar faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oladi. Uning yordamida korxonaning mulkiy holati, moliyaviy natijalari, to'lov qobiliyati, kreditga layoqatliligi va bankrotlik ehtimoli baholanadi. Shuningdek, moliyaviy tahlil orqali korxonaning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi, kelajakdagi moliyaviy rejalashtirish va korporativ boshqaruv strategiyalari ishlab chiqiladi. Jahon iqtisodiyotida korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning ahamiyati ortib borishi sharoitida iqtisodiy taraqqiyotning muvaffaqiyati va barqarorligini belgilovchi asosiy muammolarni hal etish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu sababli, korxonalarning moliyaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish va moliyaviy tahlilning ahamiyatini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi — korxonalarning moliyaviy holatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarni tizimlashtirish, ularning tahlil metodikasini takomillashtirish va moliyaviy tahlilning korxonalar boshqaruvidagi ahamiyatini asoslashdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va iqtisodiy-statistik tahlil usullari qo'llanilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ochiq ma'lumotlari va sohaga oid ilmiy adabiyotlar asosiy manba sifatida xizmat qilgan.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Korxonalarning moliyaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi bir qancha asosiy guruhlardan iborat bo'lib, ularning har biri korxonalar faoliyatining alohida bir jabhasini tavsiflaydi. Ushbu ko'rsatkichlarni to'g'ri tanlash va tahlil qilish korxonalar rahbariyati va boshqa manfaatdor tomonlar (kreditorlar, investorlar, davlat organlari) uchun muhim axborot manbai hisoblanadi. Moliyaviy tahlil vositalari orqali korxonalar mablag'larini boshqarishni takomillashtirish, moliyaviy risklarni kamaytirish va strategik qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Birinchi guruh ko'rsatkichlar — likvidlik va to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari. Likvidlik deganda korxonaning o'z majburiyatlarini qisqa muddatda to'lash qobiliyati tushuniladi. Likvidlik ko'rsatkichlari tarkibiga joriy likvidlik koeffitsiyenti — aylanma aktivlarning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati, tez likvidlik koeffitsiyenti — eng likvidli aktivlarning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati va mutlaq likvidlik koeffitsiyenti — pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarining qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati kiradi.

To'lov qobiliyati esa korxonaning uzoq muddatli majburiyatlarini to'lash imkoniyatini ifodalaydi. O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi holatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2026-yilning 1-mart holatiga 486 448 ta korxonalar va tashkilot faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, 2026-yilning aprel oyida o'tkazilgan tadbirlarda Prezident tomonidan moliyaviy ahvoli murakkablashgan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ularning to'lov qobiliyatini tiklash hamda sudgacha va sud sanatsiyasi tizimini yanada takomillashtirish zarurligi alohida ta'kidlangan. Bu ma'lumotlar korxonalarning to'lov qobiliyatini tahlil qilish zaruriyatini yana bir bor tasdiqlaydi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston tijorat banklari kredit portfeli va sanoat tarmog'i ulushi¹ (2026-yil yanvar holatiga ko'ra)

Ikkinchi guruh ko'rsatkichlar — rentabellik ko'rsatkichlari. Rentabellik korxonalar faoliyatining samaradorligini va foyda olish qobiliyatini ifodalaydi. Asosiy rentabellik ko'rsatkichlari qatoriga aktivlar rentabelligi — foydaning aktivlarning o'rtacha qiymatiga nisbati, sotish rentabelligi — foydaning sotish tushumiga nisbati va o'z kapitali rentabelligi — foydaning o'z kapitalining o'rtacha qiymatiga nisbati kiradi. 2025-yilda O'zbekistonda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1100,0 trln so'mdan ortiqni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 6 %dan ko'proqqa oshgan. Ammo ishlab chiqarish hajmining o'sishi rentabellikning o'sishini avtomatik ravishda ta'minlamaydi. Buning uchun xarajatlar tarkibini, mahsulot tannarxini va narx siyosatini chuqur tahlil qilish zarur. Shuning uchun rentabellik ko'rsatkichlarini tizimli ravishda hisoblash va dinamikada o'rganish muhim ahamiyatga ega.²


Uchinchi guruh ko'rsatkichlar — moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari. Moliyaviy barqarorlik deganda korxonaning uzoq muddatli istiqbolda o'z faoliyatini moliyalashtirish qobiliyati va qarzga bog'liqlik darajasi tushuniladi. Moliyaviy barqarorlikni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar qatoriga avtonomiya koeffitsiyenti — o'z kapitalining jami kapitalga nisbati, moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti — jami kapitalning o'z kapitaliga nisbati, o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti va investitsiyalarni qoplash koeffitsiyenti kiradi. 2026-yilning yanvar oyida O'zbekiston tijorat banklarining kredit portfeli 604 trln so'mga yetib, o'tgan yilga nisbatan 13 % ga oshgan. Sanoat tarmog'ining kredit portfelidagi ulushi 142,7 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa-da, uning umumiy ulushi 29 %dan 24 %gacha pasaygan. Bu ma'lumotlar korxonalarining kredit yuklamasini va moliyaviy barqarorlik darajasini baholashda kredit ko'rsatkichlarining o'rnini ko'rsatadi (2-rasm).

¹ "O'zbekistonda har to'rtinchi korxonalar savdo sohasida — statistika." Kursiv Media, 27 mart 2026, www.uz.kursiv.media/uz/2026-03-27/ozbekistonda-har-tortinchi-korxonalar-savdo-sohasida-statistika/.

"O'zbekistonda moliyaviy og'ir ahvoldagi biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari takomillashtiriladi." Gazeta.uz, 3 aprel 2026, www.gazeta.uz/oz/2026/04/03/bankrot/

² "O'zbekiston sanoati hajmi 2025-yilda 1,1 kvadrillion so'mga yetdi." Milliy statistika qo'mitasi, 21 yanvar 2026, stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/66387-zbekiston-sanoati-azhmi-2025-jilda-1-1-kvadrillion-s-mga-etdi-2.

"O'zbekistonda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2025-yilda 1,1 kvadrillion so'mga yetdi." Chron.uz, 21 yanvar 2026, chron.uz/economy/selected/ozbekistonda-sanoat-mahsuloti-ishlab-chiqarish-hajmi-2025-yilda-1-1-kvadrilyon-somga-yetdi.



2-rasm. O'zbekiston tijorat banklari kredit portfeli va sanoat tarmog'ining ulushi (2025-2026-yillar)

To'rtinchi guruh ko'rsatkichlar — ishbilarmonlik faolligi (aylanuvchanlik) ko'rsatkichlari. Bu ko'rsatkichlar korxonalar resurslaridan foydalanish samaradorligini va ularning aylanish tezligini ifodalaydi. Ishbilarmonlik faolligining asosiy ko'rsatkichlari qatoriga aktivlar aylanish koeffitsiyenti, debitorlik va kreditorlik qarzlarning aylanish muddatlari, tovar-moddiy zaxiralar aylanish koeffitsiyenti kiradi. 2025-yilda tashqi savdo aylanmasi 81 milliard dollardan oshib, 2024-yilga nisbatan 20 % dan ko'proqqa oshgan. Bu tashqi iqtisodiy faoliyatning faollashganini ko'rsatadi, ammo eksport va import o'rtasidagi farq (2025-yilda eksport 33 milliard dollar, import 47 milliard dollar) salbiy savdo balansini yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda korxonalarining debitorlik va kreditorlik qarzlarni samarali boshqarish, aylanma mablag'larning aylanish tezligini oshirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.⁴

Moliyaviy tahlilning korxonalar boshqaruvidagi ahamiyati beqiyosdir. Birinchidan, moliyaviy tahlil orqali korxonaning real moliyaviy holati aniqlanadi va likvidlik, rentabellik hamda moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining holati erta bosqichda baholanadi. Ikkinchidan, moliyaviy tahlil natijalari asosida strategik va taktik boshqaruv qarorlari qabul qilinadi: qaysi loyihalarga investitsiya kiritish, qaysi aktivlarni sotish, qanday moliyalashtirish manbalarini jalb qilish. Uchinchidan, moliyaviy tahlil tashqi foydalanuvchilar — kreditorlar, investorlar, davlat organlari uchun korxonaning ishonchiligi va kreditga layoqatligi haqida obyektiv ma'lumot beradi. N.Q. Yo'ldoshev va boshqa olimlarning tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, korxonalarining moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, uni baholash hamda takomillashtirish usullari va vositalarini ishlab chiqish moliyaviy boshqaruv strategiyalarining asosini tashkil etadi.⁵

Statistik tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiyotida korxonalarining moliyaviy holati tahlilini takomillashtirishning bir qancha yo'nalishlari mavjud. Birinchidan, korxonalarining moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar (IFRS) asosida tayyorlash va ulardan foydalanishni kengaytirish zarur. 2026-yilning yanvar holatiga 18 mingdan ortiq xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu korxonalar uchun xalqaro standartlarga o'tish muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, moliyaviy tahlilda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish — avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari, ma'lumotlar omborlari, sun'iy intellekt asosidagi prognoz modellari korxonalarining moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, korxonalar uchun moliyaviy tahlil bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yaratish muhim ahamiyatga ega.

2026–2027-yillarda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun jami 270 trillion so'm yo'naltirilishi rejalashtirilgan. Ushbu mablag'lardan samarali foydalanish va ularni maqsadli yo'naltirish bevosita korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish tizimining rivojlanganligiga bog'liq. Shuningdek, 2026-yilning

3 “Tijorat banklarining kredit va depozitlar to'g'risida 2026-yil 1-yanvar holatiga ma'lumot.” O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 20 yanvar 2026, cbu.uz/uz/statistics/bankstats/3326201/.

“Sanoat kreditlashda eng yirik sektor bo'lib qolmoqda, ulushi 24%ga tushdi.” UzDaily.uz, 18 fevral 2026, www.uzdaily.uz/uz/sanoat-kreditlashda-eng-yirik-sektor-bolib-qolmoqda-ulushi-24ga-tushdi/.

4 “2025-yilda O'zbekiston tashqi savdosi qanday o'zgardi?” Gazeta.uz, 29 yanvar 2026, www.gazeta.uz/oz/2026/01/29/trade-2025/.

“2025-yilda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi \$81 mlrd dan oshdi.” Kapital.uz, 21 yanvar 2026, kapital.uz/uz/2025-yil-tashqi-savdo-aylanma/.

5 Yo'ldoshev, N.Q., va Yusupova, D.T. Tizimli menejment. Toshkent: Iqtisodiyot, 2019, ss. 350-359.

“Korporativ moliyani boshqarish samaradorligini oshirishda moliyaviy tahlilning roli.” Zenodo, 16 yanvar 2025, zenodo.org/records/14676424.

“Moliyaviy tahlil va uning boshqaruv qarorlaridagi o'rni.” Econferences.ru, 2025, econferences.ru/index.php/tafps/article/download/35142/18233/18577.



1-mayidan boshlab tadbirkorlik subyektlariga kredit ajratish jarayonida ularning to'lov qobiliyatini baholash uchun muqobil skoring qilish tizimi joriy etilishi belgilangan. Bu tizim moliyaviy tahlil usullarining kreditlash jarayoniga tatbiq etilishining yaqqol misolidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonaning moliyaviy holatini kompleks baholashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar tizimi — likvidlik va to'lov qobiliyati koeffitsiyentlari, rentabellikning sotish, aktivlar, kapital rentabelligi kabi turli xil ko'rinishlari, moliyaviy barqarorlikni aks ettiruvchi mustaqillik, qarz yuklamasi va moliyaviy dastak darajasi, shuningdek, ishbilarmonlik faolligini tavsiflovchi aktivlar aylanmasi va operatsion sikllar — korxonada faoliyatining barcha jihatlarini tizimli o'rganishning asosiy vositasidir. O'zbekiston iqtisodiyotining joriy bosqichida ushbu tahliliy vositalarni qo'llash korxonalarining moliyaviy tanglik holatini erta aniqlash, kapital tarkibini optimallashtirish va iqtisodiy qo'shilgan qiymatni oshirishning muhim omili hisoblanadi. Amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy tahlil korporativ boshqaruv tizimining ajralmas qismi bo'lib, strategik qarorlarni asoslash, risklarni diversifikatsiyalash va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi:

Birinchidan, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) to'liq o'tish orqali hisobotlarning solishtiriluvchanligi va shaffofligini oshirish;

Ikkinchidan, moliyaviy tahlil jarayonlariga raqamli transformatsiya, jumladan, sun'iy intellekt asosidagi prognozli analitika, ma'lumotlar omborlari va avtomatlashtirilgan moliyaviy modellashtirish vositalarini joriy etish;

Uchinchidan, turli tarmoqlar va mulkchilik shaklidagi korxonalarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda differensiyalangan tahliliy ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish;

To'rtinchidan, moliyaviy tahlil va risk-menejment sohasida malakali mutaxassislar tayyorlashning uzluksiz tizimini yo'lga qo'yish;

Beshinchidan, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari — soliq imtiyozlari, subsidiyalar, kafolat mexanizmlari bilan o'zaro bog'liq holda ishlaydigan integratsiyalashgan moliyaviy monitoring tizimini yaratish.

Ushbu strategik chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish O'zbekiston korxonalarining moliyaviy mustahkamligini oshirishga, ularning investitsion jozibadorligini va kredit reytingini yaxshilashga, shuningdek, makroiqtisodiy beqarorlik sharoitida ularning tizimli risklarga chidamliligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Natijada, ushbu islohotlar milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va uning jahon moliyaviy tizimiga integratsiyalashuvini jadallashtirishga yo'naltirilgan muhim omilga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sharifxo'jayev, M., & Abdullayev, Y. Menejment. Toshkent, "O'qituvchi", 2001.
2. Zaynutdinov, Sh.N. "O'zbekistonning taniqli olimlari". Taniqli olimlar. scientists.uz, 2023.
3. Yo'ldoshev, N.Q., & Zaxidov, G.E. Menejment. Toshkent, 2010.
4. Muftaydinov, Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari. Doctoral dissertation, Toshkent, 2004.
5. Xudaynazarova, D.X. "Comparative Analysis of Indices of Islamic Funds with Indices of Traditional Funds by External Shock Factors". Neliti.com, 2024.
6. Muxitdinov, Sh.Z., & Shomurodova, M.G'. "Browsing publications from 2022". Neliti.com, 2022.
7. Mahmudov, N.M., & Zeynalov, T.Ş. *Iqtisadi tahlil*. Baki, "Iqtisad Universiteti" nashriyyati, 2010.
8. Burxanov, A.U. "INVESTITSIYA FONDLARINING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TAMINLASH". ILM-FAN VA INNOVATSION RIVOJLANISH, 2(4), 2019, pp. 6–13.
9. Kiliichev, A.A. Korxonada moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta'minlash. Toshkent, 2024.
10. Bierman, Harold, va Jeremy Hass. "Financial Statement Analysis and Security Valuation". McGraw-Hill Education, 2017, ss. 145-156.
11. Kaplan, Robert S., va David P. Norton. "The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action". Harvard Business Review Press, 1996, ss. 200-215.
12. Jorion, Philippe. "Value at Risk: The New Benchmark for Managing Financial Risk". 3rd ed., McGraw-Hill, 2006, ss. 170-185.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100